



“Involta” Ilmiy Jurnalni

Vebsayt: <https://involta.uz/>

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA KOMIL INSONNI TARBIYALASH YO'LLARI, SHAXSNING JAMOADA QAROR TOPISHI

Umaraliyev Humoyun Abdulahad o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

khumoyunumaraliyev@gmail.com

+998916660193

Abduraxmonova Shahzodaxon Pazliddin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-
bosqich talabasi

abduraxmonova.shahzodaxon@gmail.com

+998900315531

Ilmiy rahbar: Kholikova Nodira Djaxangirovna

Annotatsiya: Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo'lgan ruh emas, balki axloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir. Komillikning oliy belgisi Haq yo'lidan borib xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni tuz yo'lga solsa, Haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komildir.

Аннотация: Совершенный человек — это благородная личность, выросшая из человеческого общества. Он не был духом, положение которого было ясно с самого начала, но который созрел в процессе нравственного очищения. Высший признак совершенства — идти по пути истины и приносить пользу людям. Чем больше человек приносит пользу людям своими словами, делами и намерениями, чем больше он исправляет нечестивых, и чем больше он жертвует на пути Истины, он совершенен.

Abstract: A perfect man is an honorable person who grows out of human society. He was not a spirit whose position was clear from the beginning, but who had matured in the process of moral purification. The highest sign of perfection is to follow the path of truth and benefit the people. The more one benefits people with one's words, deeds, and intentions, the more one corrects the wicked, and the more one sacrifices in the way of the Truth.

Kalit so'zlar: millat, insonparvarlik, ma'naviyat, kamtarlik, madaniyat, tarbiya, komillik, yetuk jamiyat, qanoat, nafs.

Komil inson iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog'imiz lozim. Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iymonli bo'lish, halollik va poklik, vijdonli va diyonatli bo'lish nechog'lik zarur ekanligi hammamizga ayon. Quyidagi ta'rifda komil insonning asosiy xususiyatlari har taraflama chuqur va teranlik bilan bayon qilingan: "Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz". Muxtasar qilib aytganda, sharq ma'naviy merosida ma'naviyat va ma'naviy barkamollik masalalariga katta e'tibor berilganligining asosiy sabablaridan biri inson va uning hayoti eng oliy qadriyat ekanligidadir. Sharq ma'naviyatida dunyodagi barcha ne'matlar insonning faqatgina yaxshi yashashi uchungina xizmat qilmog'i shart ekanligi e'tirof etiladi. Chunki, bu ne'matlarning barchasi insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishi mumkin, halos. Shuning uchun bu birlamchi masala emas. Masalaning avvali, insonning ulug'ligi hamda yuksak kamolatga yetishish orqali Komil inson martabasiga erishish

yo'lidir. Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi eng to'g'ri yo'l ekanligi va bu bilan avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy merosning ahamiyati juda katta ekanligi asoslangan. Holbuki, o'sib kelayotgan avlod, komil inson bo'lish, halollik, to'g'rilik, poklik va adolat bilan kun kechirish kabi ko'pdan-ko'p oliyanob fazilatlarining ma'no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga doimo amal qilib yashash-odamzodning ma'naviy boyligini, komilligini belgilab beradigan asosiy mezon sanaladi. Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari yaratilgan.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (yetuk jamiyat)ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo'nalishi ekanligiga urg'u beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson sa'yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. Shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs o'zida eng oliy insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql to'g'risidagi» risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo'lishi lozim bo'lgan o'n ikki fazilatni keltirib o'tadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda o'z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini mo'tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham komillikning asosini ilmi bo'lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg'u beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, to'g'rilik, odillik, tadbirkorlik, o'zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli bo'lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan eng asosiy sifatlardir.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o'rinni egallaydi va o'z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalantirishga urinadi. Mutafakkir qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo'lishi borasidagi g'oya ilgari suriladi: aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, sahoatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog'lom, jismonan baquvvat, mard va jasur.

Abdulla Avloniy komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan Sharq mutafakkirlarining fikrlarini boyitar ekan, komil inson qiyofasida, yana shuningdek, vatanparvarlik, hamda intizomlilik sifatleri ham namoyon bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Alloma millat taqdirining jonkuyari sifatida milliy til taraqqiyoti jamiyat ma'naviy rivojini ta'minlovchi asosiy omil, deya baholaydi.

Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida bilimli bo'lishni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo'lishi esa uning yanada yuksalishini ta'minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy hotirjamlik)ning muhim ko'rsatkichi ekanligini uqtiradi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar" to'g'risida fikr yuritib dunyoda nom qoldirgan olimlarni eslatib, buyuk olim Ibn Sino haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Noyob fazilatlar sohibi bo'lmish mashhur alloma Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida "Meditsina", "Sog'lom turmush tarzi" degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor".¹

Ibn Sino ta'lim-tarbiya va axloqqa oid bir necha asarlar yaratgan: "Tadbir al-manozil"² ("Turar joyini boshqarish choralari"), "Risola fi ilm al-axloq" ("Axloqqa oid risola"), "Risola fi al-ahd" ("Burch haqida risola"), "Risola fi tazkiyat an-nafs" ("Nafsnı pokiza tutish to'g'risida risola"), (Siyosat al-badan"), ("Badanni boshqarish"), ("Kitob al-ansof ("Adolat haqida kitob"). "Al-urjuza fit-tibb" ("Tibbiy urjuza") Mazkur asarlarning bugunga qadar barkamol avlodlarimizni ta'lim va tarbiyasida, ularni zamon talablariga javob bera oladigan dono, bilimli va kuchli bo'lishlarida ahamiyati beqiyos.

Chunonchi olim "Tadbir al-manozil" ("Turar joyini boshqarish choralari") degan asarida

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008, 43-bet.

² Bu asarning fors tiliga qilingan tarjimasi 1930 yil Tehronda nashr etilgan.

odamlarning oila qurishi to'g'risidagi masalaga oid o'z mulohazalarini bayon etadi. Bundan tashqari, Ibn Sino axloqqa tegishli "Yaxshilik va yomonlik" degan asar ham yozgan. Bu asar haqida olim o'z tarjimai holida eslab o'tadi. Lekin bu kitob bizgacha yetib kelmagan bo'lsa kerak, chunki bu kitob olim tomonidan taqdim qilingan kishining o'zidagina bo'lishi ta'kidlangan edi. Ibn Sinoning o'zi ham o'sha paytda uning asrlar osha olmasligini payqagan shekilli, bu haqda tarjimai holida shunday deb yozadi: "Abu Bakr al-Barqiy degan Xorazmda tug'ilgan bir qo'shnim bor edi, o'z tabiati bilan u kishi faqih – qonunshunos bo'lib, tafsir va porsolikda yagona edi. Shu kishi mendan kitoblarga sharh yozib berishimni so'radi. Men unga yigirma jildcha keladigan "Hosil va mahsul" degan kitob yozib berdim. Bundan tashqari, unga axloqqa tegishli bir kitob ham yozib taqdim etdim. Kitobning nomini "Kitob al-birr va – l-ism" ("Yaxshilik va yomonlik kitobi") deb qo'ydim. Bu ikki kitob undan boshqada yo'q. U ikkovidan nusxa olish uchun hech kimga bermagan ham"³

Ibn Sinoning "Axloq haqida risola" asarining qo'l yozmalaridan biri O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining kitob fondida (2385 raqamda XXVI) mavjud bo'lib, bu asar 1908 yili Misrda Ibn Sinoning "Hikmat va tabiatga oid to'qqiz risolasi" kitobi ichida (152-156-betlar) nashr qilingan. Ikkinchi marta bu risola 1910 yili Misrda arab olimi Muhyiddin sabriy Qudriy tomonidan "Risolalar majmuasi" ("Majmuat ar-rasoil") asari ichida (192-203-betlar) chop etilgan.

Ibn Sino o'zining "Axloq haqidagi risola"sida axloqiy xislatlardan or-nomus, sha'n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g'ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdonlilik, do'stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik, adolatlilik kabi shaxs ma'naviyati kategoriyalariga ta'rif beradi:

"G'ayratlilik" olimning fikricha, g'azabiy quvvatga mansub bo'lib, bunda inson har qanday og'riq va alamlarga befarq qaraydi.

"Hikmat" tamyiziy quvvatga mansub bo'lib, insonni xato va yanglishishlardan asraydi.

"Qanoat", ya'ni mo'tadillikka ta'rif berib, Ibn Sino uni tana uchun normadan ortiq ozuqani iste'mol qilishdan saqlanish yoki xulq normalariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik deb tushuntiradi.

³ Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. T.: "O'zbekiston", 1971, 310-bet.

“Sabr” insondagi shunday quvvatdirki, u orqali inson boshiga tushgan yomonlikdan xoli bo‘ladi.

“Yumshoqlik” g‘azabning yuz berishidan o‘zini tutishdir. Kimki o‘zini g‘azabdan tuta olmasa, u oqibatda jinoyat sodir bo‘ladigan fe‘l-atvorga giriftor bo‘ladi. G‘azabdan o‘zini tutishni Ibn Sino insonning olijanobligidir, deb juda to‘g‘ri ta’kidlaydi.

“Vijdonlilik” tez fahmlash, his orqali berilgan biror narsaning haqiqiy ma’nosiga tez yetishdir va turli xil yomon ishlardan o‘zini tiyib turishdir.

“Rahmdillilik” omadsizlikka uchragan yoki boshqa og‘ir kulfat tushgan insonlarga hamdard bo‘lish.

Ibn Sinoning tarbiyaga bag‘ishlangan risolalaridan yana biri “Burch risolasi”dir. Bu asar 1910-yili Misrda chop etilgan. Bu yerda Ibn Sino, asosan, odam o‘zini doimo pokiza tutishi kerakligi, insonlar bilan qanday muomala qilish lozimligi kabi masalalarga to‘xtalib o‘tadi.

Bundan tashqari, Ibn Sinoning axloqqa oid asarlaridan yana biri “Nafsni pokiza tutish to‘g‘risida risola”dir. Ibn Sinoning bu asari (qo‘l yozmasi) Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kitob fondida mavjud.

Donishmandning tarbiya mavzusiga bag‘ishlangan asarlaridan yana biri “Siyosat al-badan” (“Badanni boshqarish”)dir. Bunda Ibn Sino ichkilikning zarari haqida, uning qonun-qoidalariga ham to‘xtalib, sharobni keragidan ortiqcha ichilsa, inson badanida zaharga aylanishini ta’kidlaydi.

Dasturxonda to‘kin bo‘lsa ham qanchalik,

Ichaverma, hirs qo‘yib to bo‘kkanchalik.

Ibn Sinoning axloq va odob borasidagi qarashlari uning shoh asarlari “Tib qonunlari”⁴, “Ash-Shifo”larning deyarli barcha qismlarida, shuningdek, uning badiiy asarlarida, ayniqsa, tibbiy poemasi “Hayy ibn Yaqzon”, “Qush risolasi”da ham o‘z aksini topgan. Ibn Sinoning “Tibbiy poemasi” she’riy tarzda yozilgan, uning bir qo‘lyozma nusxasi Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (inv №300816) mavjud bo‘lib, bu asar dastlab 1936-yili turk olimi Sharofiddin Yaltkaya tomonidan turk tiliga tarjima etilgan. 1956-yilda esa

⁴ “Tib qonunlari”ning dunyo mamlakatlarida mashhurligini jahonning turli kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalarining ko‘pligidan bilsa bo‘ladi. Mahdaviyning fihristida “Qonun”ning 130 nusxasi keltirilgan. Yahyo Mahdaviy. Fixristi nusxaxoyi musannafot-i Ibn Sino. Tehron 1333, №98. O‘zRFASHI qo‘lyozma fondi №3316. 97 85.

Jazoir universitetining professori Nuriddin Abdulqodir bilan fransuz olimi Henri Jaye tomonidan Parijda fransuz tiliga o‘girilgan tarjimasi bilan arabcha matni – teksti chop etildi. Olim A.E.Shlionskiy Dushanbeda bu asar asosida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, uni ruschaga tarjima qilib, ba’zi qismlarini jurnal va to‘plamlarda nashr etdi. 1972-yilda, o‘zbek sharqshunos olimi Shoikrom Shoislomov uni tahlil va nasriy tarjima qilib, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyotida o‘zbek tilida chop etdi hamda bu asar asosida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Ibn Sino o‘zining “Uyun al-hikma” (“Hikmat buloqlari”) asarida ham ta’lim va axloqqa oid o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi. Unda aytilishicha, axloq fani odamning chinakam baxtli bo‘lishi uchun unga doimo yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib beradigan fandır. Bu fan kishining xulqi, fe‘l-atvori ustidan rahbarlik qiladi. Bu fan shunday odamlarni tayyorlab berishi kerakki, ular faqatgina o‘zi uchun yashamasdan, balki boshqalar va jamoat hamda uning manfaati uchun yashashga intilishi kerak. Insonlar bir-biri bilan do‘st-inoq bo‘lib yashashi, ularda insonparvarlik ruhi rivojlanishi lozim. Insonlar kamtar, irodasi kuchli, tejamkor bo‘lishi zarur. Insonda mehnatga muhabbat, yaxshi axloqiy sifatlar va halollik doimo ustun turishi kerak. Yaxshi xulqli kishilarda insonlarning eng yaxshi xislatlari mujassamlashgan bo‘ladi. Shuningdek, asarda kishidagi odamshavandalik, bir kori xayr qilishga ishonch, iroda, bu borada tadbirkorlik, do‘stga nisbatan hurmat-ehtirom, dushmanga nisbatan nafrat xislatlarining bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.⁵

Ibn Sino o‘sib kelayotgan yoshlarga shunday pand-nasihat qiladi:

Siringni so‘rsalar kimsadan tut pinhon,

Har kimki gapirmas ko‘p, udir mulohazakor.

Ichingda nihon bo‘lsa, siring sening asiring,

O‘zing unga asirsan qachonki qilding oshkor.

Allomaning komillik sari boshlovchi asarlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Zero, bunday insonlar yaratgan ahloqiy mavzudagi asarlar asrlar osha insonlarni yaxshilikka, ezgulikka boshlaydi.

⁵ Shoislomov Sh.Ibn Sinoning tib haqidagi she‘riy asari (“Urjuza”) T.; 1972.

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir nuqtai nazaridan tarbiya doimo maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, birinchi navbatda, aniq maqsadga qaratilgan jamiyatning faoliyatidir. Bunda jamiyat o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyat hamda vositalardan foydalanadi. Tarbiya insonni muayyan ijtimoiy zaruriy bilimlar majmui, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, uni hayotga va mehnatga, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlariga rioya qilishga, kishilar bilan muomala qilishga, ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashni nazarda tutadi. Mazkur holatlarning barchasi, tabiiy ravishda shaxsning individual belgi va fazilatlarini shakllantirishni istisno etmaydi. Tarbiya ijtimoiy muhitning insonga ta'sirining tarkibiy qismi sifatida ham baholanadi. Tarbiya – inson shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga kuchli ta'sir etuvchi muhim omil bo'lsa-da, biroq bu jarayonda yana qator omillar, jumladan, muhit ta'siri va irsiyat ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganimizda, mutaffakirlarimizning ham komillikka erishishni turli yo'llar bilan izohlab berganlikari bejiz emas. Inson komillik darajasiga yetishi uchun uning ongi, faoliyati, o'z-o'zini anglashidan iborat ichki yo'naltiruvchi mexanizmi muhim ahamiyatga ega. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishi, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Ana shu xususiyatlar rivojlanib, insonning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati ma'lum bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008, 43-bet.
2. “Tib qonunlari”ning dunyo mamlakatlarida mashhurligini jahonning turli kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalarining ko'pligidan bilsa bo'ladi. Mahdaviyning fihristida “Qonun”ning 130 nusxasi keltirilgan. Yahyo Mahdaviy. Fihristi nusxaxoyi musannafot-i Ibn Sino. Tehron 1333, №98. O'zRFASHI qo'lyozma fondi №3316. 97 85.
3. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. T.: “O'zbekiston”, 1971, 310-bet.
4. Shoislomov Sh.Ibn Sinoning tib haqidagi she'riy asari (“Urjuza”) T.; 1972.